

## XORIJIY INVESTITSİYALARNI IQTISODIYOTGA TASIR QILISH XUSIYATLARI

**Arslanbekov S.M**

TDTU , dotsenti

**Annotatsiya:** O‘zbekiston bugungi kunda yirik xorijiy investitsiyalarni qabul qiluvchi mamlakatlar qatoriga kirish uchun barcha iqtisodiy, siyosiy va huquqiy asoslarga ega. Lekin bu degani O‘zbekistonda xorijiy investorlarni jalb qilish uchun barcha ishlar qilib bo‘lindi, degani emas. Endigi navbatda bu asoslarga tayangan holda investitsiyalar jalb etishning mexanizmlarini takomillashtirish masalalari turadi.

**Tayach so‘zlar:** investitsiya, iqtisodiyot, milliy boylik, real investitslar, investitsiyalarni baxolash..

O‘zbekiston bugungi kunda yirik xorijiy investitsiyalarni qabul qiluvchi mamlakatlar qatoriga kirish uchun barcha iqtisodiy, siyosiy va huquqiy asoslarga ega. Lekin bu degani O‘zbekistonda xorijiy investorlarni jalb qilish uchun barcha ishlar qilib bo‘lindi, degani emas. Endigi navbatda bu asoslarga tayangan holda investitsiyalar jalb etishning mexanizmlarini takomillashtirish masalalari turadi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, strategik investorlar ko‘p miqdordagi mablag‘larni, birinchi navbatda, iqtisodiyoti o‘z ichki imkoniyatlari asosida barqaror va izchil ravishda rivojlanayotgan mamlakatga yo‘naltiradi. Aynan shunday mamlakatlardagina qo‘yilgan mablag‘lar saqlanishi va barqaror foyda olishga mo‘ljallansa bo‘ladi. Ichki va chet el investorlarini, birinchi navbatda, minimal darajadagi soliq imtiyozlari emas, balki biznesdagi keyingi qulay va maqbul istiqbollari qiziqtiradi. MDH davlatlarining paydo bo‘lishi bilan xorijiy investorlarning investitsion faoliyatlarini amalga oshirishdagi yangi imkoniyatlar maydoni paydo bo‘ldi. Shuni aytish kerakki, xorijiy investorlar bu masalada katta tajribaga ega. Albatta, bu masalaning bir tomoni bo‘lsa, ikkinchi tomoni investitsiyalar qabul qiluvchi (MDH) davlatlar uchun zamonaviy ishlab chiqarish vositalarini qabul qilishdagi investitsion tanlov imkoniyati yaratildi.

Bunga oddiy hol deb qarash kerak emas, chunki investitsiyalar – iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi, uni olg‘a siljituvchi kuch. Mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy va

siyosiy rivojlanishida investitsiyalarning, jumladan, xorijiy investitsiyalarning ahamiyati kattadir. Ma'lumki, har qanday davlat dunyodan ajralgan holda jahon tajribalarini o'rganmasdan, dunyoning yetakchi davlatlari ilm, fan va texnika sohasida erishgan yutuqlarini qabul qilmasdan rivojlanishi mumkin emas. O'zbekiston iqtisodiyotida chuqur iqtisodiy islohotlar, tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilar ekan, xorijiy investitsiyalar rivojisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Globallashuv jarayoniga qo'shilish dunyoning yetakchi davlatlari bilan hamkorlikda bo'lish, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohadagi davlat siyosatining o'zaro manfaatli asosda bu davlatlar siyosatiga mos kelishidir. Zamonaviy jahon iqtisodiyoti uchun investitsiya faolligi va jahon iqtisodiyoti globallashuvining kuchayishi muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar va bozor iqtisodiyotiga o'tish davrini boshidan kechirayotgan davlatlarning xalqaro mehnat taqsimotidagi roli ortib borayotganligi ham unga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, globallashuv jarayoniga iqtisodiyotni erkinlashtirish, fan-texnika taraqqiyotining tezlashishi, raqobatning kuchayishi va boshqa bir qator omillar ham xosdir<sup>1</sup>

Ma'lumki, milliy boylikning muhim tarkibiy qismini korxonalar va tashkilotlardagi, xalq xo'jaligi tarmoqlaridagi asosiy fondlar tashkil qiladi. Uzoq muddat (bir yildan ortiq vaqt) mobaynida moddiy ishlab chiqarish sohasida, noishlab chiqarish sohasida ham amal qiladigan, shuningdek, ijaraga berish uchun foydalaniladigan moddiy aktivlar asosiy vositalar hisoblanadi. Asosiy vositalarga imoratlar, inshootlar, o'tkazuvchi moslamalar, mashina va uskunalar, transport vositalari, o'lchov asboblari, hisoblash texnikasi, ishlab chiqarish va xo'jalik inventarlari, ishchi va mahsuldor hayvonlar, ko'p yillik daraxtlar, erning meliorativ holatini yaxshilash uchun sarf qilingan kapital qo'yilmalar va boshqalar kiradi. O'z navbatida, ko'p yillik daraxtlar, (mevali va manzarali), mahsuldor hayvonlar, kutubxona fondlari, oddiy qishloq xo'jaligi texnikalari xizmat muddati va qiymatidan qat'iy nazar, asosiy vositalar tarkibiga kiritiladi. Shu bilan birga, yer ham asosiy vositalar tarkibida hisobga olinadi.

---

<sup>1</sup> 11. Tursunova M.R. Xalqaro menejment. Darslik. – T.: Iqtisodiyot dunyosi, 2022

Mamlakatimizda amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq asosiy vositalar – korxonada tomonidan uzoq muddat davomida xo'jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yohud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalanish uchun tutib turiladigan moddiy aktivlarni ifodalaydi. Asosiy vositalar tarkibiga quyidagi mezonlarga javob beradigan moddiy aktivlar kiritiladi: bir yildan ortiq xizmat qilish muddati; bir birlik (to'plam) uchun qiymati eng kam oylik ish haqi miqdorining ellik baravaridan ortiq bo'lgan buyumlar.

Asosiy fondlarning iqtisodiy mohiyati shundaki, moddiy-mulkiy qiymatlik ko'rinishidagi asosiy fondlar korxonada ishlab chiqarish jarayonida mehnat vositasi sifatida ko'p marotaba ishlatiladi (foydalaniladi) va ularning qiymati asta-sekin qismlarga bo'lingan holda tovar (mahsulot) bahosiga o'tib boradi. Asosiy fondlarning muhim xususiyati mehnat vositasi sifatida amal qilishi, ishlab chiqarish tsiklida ko'p marotaba ishlatilishi va ular qiymatining mahsulot bahosiga ko'chib o'tishi bilan tavsiflanadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, asosiy fondlarni shakllantirishda kapital qo'yilmalar muhim o'rin egallab, bu muhimlik kapital qo'yilmalarning tarkibiy tuzilishidan kelib chiqadi. Kapital qo'yilmalarning tarkibiy tuzilishi quyidagilarni qamrab oladi: kapital qo'yilmalarning texnologik tuzilishi; kapital qo'yilmalarning takror ishlab chiqarish tuzilishi; kapital qo'yilmalarning tarmoq va hududiy tuzilishi.

Real investitsiyalarni iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimlash va o'zlashtirish mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. Kapital qo'yilmalarning iqtisodiy samaradorligi ularning tarmoqlar va hududlar bo'yicha tarkibiy tuzilishiga bog'liq bo'ladi.

Kapital qo'yilmalarning tarmoq tuzilishi (tarkibi) deganda kapital qo'yilmalarning butunlay iqtisodiyot va sanoat tarmoqlariga nisbati va taqsimlanishi tushuniladi. Uni takomillashtirish, eng avvalo, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini proporsional ravishda rivojlantirish bilan bog'liq bo'ladi.

So'nggi yillarda iqtisodiyotga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalarning tarmoq tarkibida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida iqtisodiyotga yo'naltirilgan xorijiy investitsiyalar tarkibida sanoat ulushi etakchi

o'rinni saqlab qolgani holda pasayish tendentsiyasiga ega. Qishloq xo'jaligi tarmog'ini rivojlantirishga qaratilgan hukumatning sa'yi-harakatlariga qaramasdan qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan investitsiyalar ulushi tarmoq ehtiyojiga nisbatan pastroq darajada saqlanib turibdi.

Aytish mumkinki, investitsiyalarning tarmoq tuzilishini rejalashtirish – mamlakat iqtisodiyotining kelgusi holatini rejalashtirish bilan tenglashtiriladi va buni hech qachon esdan chiqarmasligimiz lozim. Davlat byudjet mablag'lari va boshqa dastaklar yordamida investitsiyalarning tarmoq tuzilishining o'zgarish tendentsiyasiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatish mumkin.

Iqtisodiyotda kapital qo'yilmalarning roli, asosan, quyidagilar bilan xususiyatlanadi:

- kapital qo'yilmalar asosiy fondlarni barpo etish, amaldagi korxonalarni ta'mirlash va kengaytirish, korxonalarni texnik qayta qurollantirishning muhim va bosh omilidir;

- kapital qo'yilmalar yordamida iqtisodiyot tarmoqlari va alohida ishlab chiqarishdagi asosiy fondlarning rivojlanish sur'atlarini tartibga solish amalga oshiriladi;

- kapital qo'yilmalar yordamida ijtimoiy xarakterdagi muammolar (uy-joy, ta'lim muassasalari, sog'liqni saqlash, madaniyat ob'ektlari qurilishi) bartaraf etiladi;

- kapital qo'yilmalar yordamida mamlakatning barcha iqtisodiy hududlarining rivojlanishi tartibga solinadi va boshq.

Investitsiyalarning o'sish sur'atlari ko'p omillarga bog'liq. Avvalambor investitsiyalar hajmi olingan daromadni iste'mol va jamg'armaga taqsimlanishiga bog'liq. Aholini o'rtacha daromadi past bo'lgan holda ularning asosiy qismi (70-80%) iste'molga sarflanadi. Aholi daromadlarini o'sib borishi jamg'arishga yuboriladigan qismni ortib borishiga sabab bo'ladi.

Umumiy daromadda jamg'arish ulushining ortib borishi investitsiyalar hajmini o'sishiga olib keladi, va aksincha. Ammo bu shart aholini davlatga ishonchi yuqori bo'lganda, davlat fuqarolarning investitsion faolligini ta'minlaganda va kafolatlaganda bajariladi.

Investitsiyalar hajmiga kutilayotgan daromad normasi ham ta'sir ko'rsatadi, chunki ko'rilyotgan foyda investitsiyalashga undaydi. Kutilayotgan foyda normasi qanchalik

yuqori bo'lsa, investitsiyalash hajmi shunchalik yuqori bo'ladi, va aksincha. Investitsiyalar hajmiga ssuda foizi stavkasi katta ta'sir ko'rsatadi, chunki investitsiyalash jarayonida qarzga olingan mablag'laridan ham foydalaniladi. Agar kutilayotgan sof foyda normasi o'rtacha ssuda foizi stavkasidan yuqori bo'lsa bu qo'yilmalar investor uchun daromadlidir. Shuning uchun o'rtacha foiz stavkasini o'sishi investitsiyalash jarayonini susayishiga olib keladi.

Investitsiya shart-sharoitlariga quyidagi omillar kiradi:

– umumiy iqtisodiy shart-sharoitlar – YaIMning o'sish sur'atlari, inflyatsiya darajasi, ishsizlik darajasi, foiz stavkasi, ishlab chiqarish hajmi va tarkibi, to'lov balansi, monopolizm darajasi, valyuta konvertatsiyasi, tashqi qarz, investitsiyalar hajmi va moliyalashtirish manbalari, davlat byudjeti defitsiti va boshq.;

– siyosiy shart-sharoitlar – mamlakatdagi siyosiy barqarorlik, investitsiya faoliyatini tartiblovchi va investorlarning huquqlarini va ularga yaratilgan kafolatlarni ta'minlovchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarning mavjudligi va amal qilishi, jinoyatchilik va korrupsiya holati va boshq.;

– bozor mexanizmi shart-sharoitlari – bozor infratuzilmasining rivojlanganligi: bank, sug'urta, fond bozori, transport va aloqa, raqobat va narx shakllanishi va boshq.;

– axborot ta'minoti shart-sharoitlari – axborot va telekommunikatsiyalarning rivojlanganligi, raqobatchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni tezkorlik bilan olish imkoniyatlari, mahalliy hamkorlar to'g'risidagi ma'lumotlarning shaffofligi va boshq.;

– ekologik shart-sharoitlar – mamlakatdagi ekologik holat, mamlakatda va qo'shni davlatlarda ekologik xavfli hududlarning mavjudligi, xalqaro qonunchilikdagi ekologik me'yorlarga amal qilish holati va boshq.;

– ijtimoiy madaniy va etnografik shart-sharoitlar – mahalliy aholining mentaliteti va madaniyati, aholining hayot tarzi va turmush holati, jamiyatning xorijiy investitsiyalarga bo'lgan munosabati va boshq.

Ma'lumki, hukumat mamlakatdagi investitsiya shart-sharoitlarini takomillashtirib, makroiqtisodiy holatni yaxshilaydi, iqtisodiy barqarorlikka erishishga harakat qiladi va

iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Bu esa, nafaqat, xorijiy investorlar uchun investitsiya muhitining jozibadorligini ta'minlaydi, balki ichki investitsiya jarayonlarini faollashtiradi.

### **Adabiyotlar.**

Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi 20 dekabr 2022 y. – T: O'zbekiston, 2022

Vaxobov A.V., Xojibakiev Sh.X., Mo'minov N.G. “Xorijiy investitsiyalar”. O'quv qo'llanma.- T.: Moliya, 2010.-328 b.

Arslanbekov S.M. X alqaro investitsiyalarni jalb qilish omillari , *Monografiya* – TDTU, 2023. 201-b.